

SINXRON TARJIMANING HAYOTIMIZDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Soporov Abror Abduraxmon o'g'li
TDSHU magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada global muloqot va kommunikatsiya jarayonlarida sinxron tarjimaning muhim roli haqida so'z yuritiladi. Turli tillarda so'zlashuvchi insonlar orasidagi aloqa va tushunishni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun sinxron tarjimaning ahamiyati juda katta. Sinxron tarjima katta miqyosdagi xalqaro tadbirlar, anjumanlar va uchrashuvlarda til to'siqlarini bartaraf etishga yordam beradi, bu esa samarali muloqot va anglashuvga zamin yaratadi. Mazkur maqolada sinxron tarjima orqali turli madaniyat va tillar o'rtasidagi muloqotni osonlashtirishning, odamlar o'rtasidagi o'zaro anglashuvni mustahkamlashning ahamiyati batafsil yoritiladi. Xususan, zamonaviy dunyoda xalqaro hamkorlik va axborot almashinuvi ortib borayotgan sharoitda, sinxron tarjimonlar orqali real vaqt rejimida aniq va tezkor tarjima amalga oshirilishi muloqotning samaradorligini oshiradi. Shuningdek, maqolada sinxron tarjima bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning yuksak e'tibor, bilim va psixologik barqarorlikka ega bo'lishlari zarurligi ham qayd etiladi.

Kalit so'zlar: So'z, matn, nutq, tarjima, sinxron tarjima, yozma matn, og'zaki matn, tarjimon, tarjimon, sinxronist, zamonaviy tillar, ravon, mikrofon, quloqchin.

Annotation: This article discusses the important role of simultaneous translation in global communication and communication processes. Simultaneous translation is very important for ensuring communication and understanding between people speaking different languages, and for developing international cooperation. Simultaneous interpretation helps to overcome language barriers in large-scale international events, conferences and meetings, which creates the basis for effective communication and understanding. This article describes in detail the importance of facilitating communication between different cultures and languages and strengthening mutual understanding between people through simultaneous translation. In particular, in the conditions of increasing international cooperation and information exchange in the modern world, accurate and fast translation in real time through simultaneous interpreters increases the effectiveness of communication. The article also notes the need for specialists engaged in simultaneous translation to have high attention, knowledge and psychological stability.

Keywords: Speech, text, speech, translation, simultaneous translation, written text, spoken text, interpreter, translator, synchronist, modern languages, fluent, microphone, headset.

KIRISH

Bugungi globallashtirish dunyoda turli madaniyatlar va tillar o'rtasidagi aloqalar kuchaymoqda, va bu jarayonda sinxron tarjimaning o'rni beqiyosdir. Sinxron tarjima nafaqat til to'vsiqlarini bartaraf etadi, balki turli millatlar o'rtasidagi o'zaro anglashuvni yaxshilab, samarali muloqot va hamkorlikni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Xalqaro konferensiyalar, diplomatik uchrashuvlar, biznes forumlari va boshqa ko'plab tadbirlarda sinxron tarjima orqali ko'p tilli muloqot imkoniyati yaratiladi.

Sinxron tarjima – bu biror kishi gapirayotganda, tarjimon uni deyarli bir vaqtda boshqa tilga tarjima qilib, tinglovchilarga yetkazishi jarayoni hisoblanadi. Sinxron tarjima odatda maxsus texnologik uskunalar yordamida amalga oshiriladi, bunda tarjimonlar o'zlariga qulay kabinada o'tirib, tinglovchilar esa quloqchinlar orqali tarjima qilinayotgan nutqni tinglaydi. Bu usul yirik xalqaro tadbirlarda, diplomatik uchrashuvlarda, biznes forumlari va ilmiy anjumanlarda keng qo'llaniladi.

Sinxron tarjima – bu gapirayotgan shaxsning nutqi deyarli bir vaqtda boshqa tilga tarjima qilinadigan jarayon. Tarjimon so'zlovchini tinglab, gapini qisqa vaqtda boshqa tilga o'gira olishi kerak. Bunda maxsus texnik vositalardan — quloqchinlar va mikrofonlardan foydalaniladi. Sinxron tarjimonlar alohida kabinalarda o'tirib, nutqni tinglaydilar va shu zahotiyoy boshqa tilga o'giradilar. Bu jarayon ayniqsa katta xalqaro tadbirlarda, masalan, BMT yig'ilishlari, iqtisodiy forumlar va diplomatik uchrashuvlarda keng qo'llaniladi.

Sinxron tarjima odatda yirik xalqaro konferensiyalar, sammitlar, siyosiy uchrashuvlar, biznes forumlar va boshqa tadbirlarda qo'llaniladi. Uning asosiy maqsadi – qisqa vaqt ichida axborotni boshqa tilga o'girish va shu orqali turli tillarda so'zlashuvchi odamlar o'rtasida samarali va tezkor muloqotni ta'minlashdan iborat. Sinxron tarjimonlardan nafaqat til bilimlari, balki yuqori darajadagi diqqat-e'tibor, psixologik chidamlilik va muloqot qobiliyatlari ham talab etiladi. Xalqaro uchrashuvlar va sammitlarda, sinxron tarjima diplomatik aloqalar va davlatlar o'rtasidagi muloqotni osonlashtirishda katta ahamiyatga ega. Davlat rahbarlari, diplomatlar va yuqori martabali rasmiylar o'rtasida ko'pincha bir necha tilda so'zlashiladi. Til to'vsiqlari sinxron tarjima orqali bartaraf etiladi, natijada davlatlar o'rtasidagi o'zaro anglashuv va muloqot rivojlanadi.

Global iqtisodiy tizimlar bir-biriga bog'liq bo'lib, chet el investorlari va korxonalar o'rtasidagi muloqot ko'pincha sinxron tarjima yordamida amalga oshiriladi. Xalqaro biznes uchrashuvlari, yirik kompaniyalar o'rtasidagi kelishuvlar, yarmarkalar va boshqa tadbirlarda sinxron tarjimonlar katta rol o'ynaydi. Bu jarayon chet el investorlariga o'z fikrlarini oson va aniq yetkazishga yordam beradi. Ilmiy anjumanlar va konferensiyalarda ko'pincha turli mamlakatlardan kelgan olimlar va

tadqiqotchilar qatnashadi. Sinxron tarjima orqali ularning ilmiy tadqiqotlari va natijalarini dunyo bo'ylab tushunish va baholash imkoniyati oshadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tarjima haqidagi ilk fikrlar qadim Rimda yuzaga kelgan. Aristotel, Sitseron va Goratsiyalar tarjimashunoslik sohasining dastlabki namoyandalari hisoblanadi. Ular tarjima jarayonida so'zma- so'z tarjimadan foydalangandan ko'ra, uning ma'nosini saqlashni ma'qul ko'rganlar. Keyinchalik Italiya, Fransiya, Angliya, Germaniya va Rossiyada tarjima haqidagi nazariy tushunchalar paydo bo'lgan. Dastlabki tarjimonlar Misr, Mesopotamiyada bo'lgan degan farazlar mavjud, lekin ularning kimligi va qilgan tarjimalari ma'lum emas. 1953- yili Xalqaro tarjimonlar uyushmasi FIT (Federation Internationale des Traducteurs) ning tashkil qilinishi tarjimon va tarjimashunoslar faoliyatining yanada ravnaq topishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Tarjima O'rta Osiyoda ham qadimdan mavjud bo'lib, ulug' mutafakkirlarimizdan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Mahmud Qoshg'ariylar madaniyatimizni boyitishda birinchilardan bo'lib xizmat qilgan tarjimonlarimizdandir. Ular jahon fani rivojiga matematika, astronomiya, falsafa, tibbiyot, tilshunoslik bilimlari bilan o'zlarining munosib hissasini qo'shganidek, tarjimonlik sohasida ham ko'p xizmatlar qilgan. O'z asarlarini arab tilida yozib, grek, fors, hind tillariga birmunchalarini tarjima qilganlar.

O'zbekistonda tarjimashunoslik maxsus ilm sifatida o'tgan asrning ikkinchi yarmida shakllandi. Asr oxiriga kelib, bu sohada 10ga yaqin fan turi, 50dan ortiq fan nomzodlari yetishib chiqdi. N. Vladimirova, J.Sharipov, S. Salomova, G'. Salomov, Yu. Pulatov, J. Buronov, A. Abduazizov, Q. Musayev, G. G'afurova, N. Komilov singari tilshunos olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy tadqiqotlar O'zbekistonda ham tarjima nazariyasi borasida keng ko'lamda izlanishlar olib borilganining isbotidir. Ular orasida tarjima nazariyasining lingvistik tamoyillarini yaratishda professor A.V.Fedorov izlanishlarini davom ettirgan professor G'.Salomovning xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Olimning 1966- yil nashr qilingan "Til va tarjima" monografiyasi O'zbekistonda tarjima nazariyasi fanining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shdi. Ayniqsa, olimning 1973- yilda nashr qilingan "Tarjima tarixi", "Tarjima nazariyasiga kirish", "Umumiy tarjima nazariyasi asoslari" o'quv dasturlari respublikamiz oliy o'quv yurtlarida tarjima nazariyasi kursini o'qitishda asosiy dasturulamal bo'lib xizmat qildi. Xullas, professor G'aybulla Salomovning "Tarjima nazariyasiga kirish" darsligi oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida ta'lim olayotgan talabalar uchun yo'riqnomaga aylandi¹.

¹ E.Ochilov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o'quv qo'llanmasi). Toshkent. 2012.

Ilk sinxron tarjima tarjribasi 1928-yilda VI Komintern Kongressida bo'lib o'tgan. O'shadavrda telefonlar yo'q edi. So'zlovchining nutqito'g'ridan to'g'ri tarjimonning quloqlariga yetib borar edi. Ilkkabina vanaushniklar 1933-yil Kominternning ijro etuvchi 13-ypalpi majlisida paydo bo'lgan. Sinxron tarjima Birinchi jahon urushi paytida vujudga kelgan. O'sha davrda fransuz tili xalqaro til hisoblangan va muhim xalqaro uchrashuvlar Fransiyada bo'lib o'tgan. Birinchi jahon urushi davrida tarjimonlar ko'magiga muhtoj bo'lgan yuqori martabali Amerika va Britaniyalik muzokara olib boruvchi shaxslar fransuz tilini bilmasdilar. Ayniqsa, Nuremberg (Nuremberg) va Tokio(1946-1968) sud jarayonlaridan so'ng konferensiya tarjimasi keng qamrovli bo'lib ketdi.

Shunday qilib, sinxron tarjima darslari ko'p kanalli magnitofonning yaratilishidan so'ng boshlangan va 60-yillar oxirlari va 70-yillar boshlarida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borildi (Xenri Barek (AQSH), D. Gerver (Angliya), I.A. Zimnaya (Rossiya) va boshqalar). 1960 va 1970-yillarning boshlarida ba'zi ruhshunoslar va tilshunoslar sinxron tarjima aspektlari ustida ruhiy va tilshunoshlikning bir qancha tajribaviy tarjima darslariga qiziqib qolishdi va asosiy tilning har xil usullari, qabul qilish tezligi, xabar olingan vaqt o'rtasidagi va o'zga tilga o'girilish vaqti o'rtasidagi vaqt shovqin, nutq yetib kelishdagi to'xtashlar kabi masalalarni o'rganishgan. Hozirgi kunda o'zbek tilidan ingliz tiliga va ingliz tilidan o'zbek tiliga sinxron tarjima qilish metodlari va nazariyalari ustida yetarli darajada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda va bu biz kelajak avlod oldiga salmoqli vazifalarni yuklaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida sinxron tarjimaning hayotimizdagi o'rni va ahamiyati o'rni bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo'llanilgan xorijiy va milliy statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi kunga kelib tarjimaning ko'plab turlari qo'llanilib kelinmoqda, jumladan sinxron tarjima ham mavjud bo'lib, bugungi kunda ko'plab muassasalarda sinxron tarjimaning ahamiyati ko'p odamlar orasida odatiy holga aylanganini ko'rib turibmiz. Boshqa tarjimalar kabi sinxron tarjimaning ham o'ziga xos turlari bo'lib, bu tarjimaning ham qonun qoidalari va shart-sharoit va ijro usullari mavjuddir. Aslida sinxron tarjimaning ma'nosi vazifa va vositalariga ko'ra bir nechta ma'nolarni o'zida mujassam etgan. Biz ushbu qoidlarni va usullarini barchasini muhokama qilamiz va imkon qadar yoritib beramiz. Sinxron tarjimaning ahamiyati: Tarjima degani, bu asliy tildan ikkinchi tilga bir xil ma'noni saqlab qolgan holda eshitiladigan nutq yoki yozma matnlarni tarjima qilishni bildiradi. Shuningdek, sinxron so'zni olsak, bu bir lahzada

sodir bo'lish ma'nosini bildiradi, Xuddi shunday, agar siz sinxron so'zini olsangiz, bu bir lahzali hodisani anglatadi, ya'ni sinxron so'zi darhol va oniy tezlik xususiyatini oladi. Aytishimiz mumkinki, sinxron tarjima nutq yoki matnlarni asliy tilda aytilgan to'liq ma'noni saqlab qolgan holda asliy tildan boshqa tilga tarjima qilishdir.

Sinxron tarjimaning o'ziga xos avzalliklari mavjud (1-jadval):

1-jadval

Sinxron tarjimaning avzalliklari

Avzalliklari	Izohi
Tezlik va samaradorlik	Sinxron tarjimaning asosiy afzalliklaridan biri uning tezkorlik bilan amalga oshirilishidir. So'zlovchi nutq so'zlayotgan paytda tarjimon uni bir vaqtda boshqa tilga o'giradi. Bu esa katta xalqaro tadbirlar, anjumanlar, siyosiy uchrashuvlar va biznes konferensiyalar uchun juda qulay hisoblanadi. Sinxron tarjima orqali vaqt tejash mumkin va uchrashuvlar davomida taraflar bir-birlarini tez va aniq tushunadi.
Xalqaro hamkorlik va diplomatiya	Xalqaro miqyosdagi hamkorlik jarayonlarida sinxron tarjimaning o'zni juda katta. Diplomatik uchrashuvlar, muzokaralar va xalqaro konferensiyalarda turli tillarda gapiruvchi insonlar sinxron tarjima orqali o'z fikrlarini aniq va to'g'ri yetkazish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon davlatlar o'rtasida o'zaro anglashuvni yaxshilash va kelishuvlarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.
Ilmiy va ta'limiy hamkorlik	Sinxron tarjima ilmiy anjumanlar va xalqaro simpoziumlarda keng qo'llaniladi. Turli davlatlardan kelgan olimlar va tadqiqotchilar o'z ishlarini sinxron tarjima orqali boshqa mamlakat vakillariga tushuntiradilar, ilmiy yutuqlar bilan bo'lishadilar. Bu esa ilm-fan sohasida xalqaro hamkorlikni kuchaytirishga yordam beradi. Sinxron tarjima shuningdek, xalqaro ta'lim dasturlarida ham keng qo'llaniladi, bu orqali talaba va o'qituvchilar turli tillardagi bilimlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishadi.
Biznes sohasida muloqotni yengillashtirish	Sinxron tarjima yirik korporativ tadbirlar, biznes forumlari va ko'rgazmalarda samarali muloqot vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Turli tillarda gapiruvchi ishbilarmonlar va kompaniya vakillari sinxron tarjima orqali to'g'ri va tezkor muloqotga kirishib, o'zaro hamkorlik imkoniyatlarini baholaydilar, kelishuvlarga erishadilar. Sinxron tarjima biznes sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

Sinxron tarjima tarjimoni amalga oshirish mexanizimi hali hamon aniq qonun qoidalar asosida tasdiqlanmagan. Chunki bu turdagi tarjiman tarjimonningi ikkala

tildagi lug'aviy boyligi va zukkolik qobiliyatiga bog'liq. Ushbu tarjimani amalga oshirish uchun tarjimon uchun zarur bo'lgan eng muhim qobiliyatlar va ko'nikmalar:

1) lingvistik, lisoniy kompetensiya. Bu pragmatik kompetensiyani o'z ichiga oladi. Pragmatik kompetensiya esa o'z o'rnida 2 ga bo'linadi:

a) pragmalingvistik kompetensiya – bu R.Settonning fikriga ko'ra, muayyan bir so'z yoki iboralarning “ma'nosining xususiy otenkalari”ni bilish demak;

b) sotsiopragsmatik kompetensiya – bu o'z ichiga etiket, funksional uslub va x.k.larni bilish kabi keng tushunchalarni o'z ichiga qamrab oladi.

2) sinxronistning umumiy va maxsus lug'atini qura oluvchi, yetarlicha asos beruvchi umumiy bilimlarga ega bo'lishi kerak. Bu oldindan berilgan hujjat va ma'ruzalarning berilishi sharoitida konkret tematika yuzasidan tushunchaga ega bo'lish va tarjima qilish uchun zarur.

3) sinxron tarjimonning xabarga ishlov berish ko'nikmasi yoki strategiyalari yoki qobiliyatlariga ega bo'lish².

Sinxron tarjima sifatli va samarali bo'lishi uchun bir qator muhim qoidalarga amal qilish zarur. Quyida sinxron tarjimani amalga oshirishda qo'llaniladigan asosiy qoidalar keltirilgan:

1. Tayyorlov Bosqichi

• **Matn va mavzuni oldindan o'rganish:** Sinxron tarjima qiladigan tarjimon mavzuni oldindan o'rganishi zarur. Konferensiya, uchrashuv yoki tadbir mavzusi bo'yicha asosiy terminlar va atamalarni bilish tarjima jarayonini osonlashtiradi.

• **Ma'lumot to'plash:** Tadbirga ishlatilishi mumkin bo'lgan terminologiya, so'z birikmalari, va muhim atamalarni oldindan bilish, shuningdek, mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni o'rganish muhimdir.

• **Ikki tarjimon tayinlash:** Sinxron tarjima juda katta e'tibor va kontsentratsiya talab qiladi, shuning uchun uzoq davom etadigan tadbirlarda kamida ikki tarjimon navbat bilan ishlaydi. Har bir tarjimon odatda 20-30 daqiqalik navbatlar bilan almashadi.

2. Eshitish va Diqqatni Jamlash

• **Diqqatni yuqori darajada jamlash:** Sinxron tarjima jarayonida tarjimon bir vaqtda tinglash va tarjima qilish talablariga javob berishi kerak. Diqqatni yo'qotmaslik va nutq davomida fikrlarni bog'liq holda tushunish juda muhimdir.

• **Eshitishni va tarjima qilishni sinxronlashtirish:** Tarjimon bir necha soniya kechiktirib eshitishni boshlaydi, chunki bu kechikish tarjimonga butun fikrni to'liq tushunishga yordam beradi.

3. Terminologiya va Nutq Ravonligi

² Колосов С.А., Бабаева Ю.А. Стратегии, тактики и приёмы в синхронном переводе. – г. Тверь – 2020.

• **To'g'ri va aniq tarjima qilish:** Tarjimon ma'noni yo'qotmasdan, matndagi eng muhim ma'lumotlarni aniq yetkazishi zarur. Tarjima davomida murakkab so'z birikmalarini qisqa, tushunarli va tabiiy shaklda yetkazish talab qilinadi.

• **Asl matn mazmunini saqlash:** So'zma-so'z tarjimadan ko'ra, asliyat mazmunini tushuntirish va mantiqiy anglash lozim. Sinxron tarjimada so'zma-so'z tarjima qilishga urinish ma'noni tushunarsiz va g'ayritabiiy qilib yuborishi mumkin.

4. Texnik Jihozlardan Foydalanish

• **Quloqchin va mikrofonlardan foydalanish:** Sinxron tarjima jarayonida sifatli quloqchin va mikrofon muhim hisoblanadi. Quloqchindagi ovoz aniq va ravshan bo'lishi, mikrofon orqali esa tinglovchilar uchun yetarli darajada aniq ovoz yetkazilishi lozim.

• **Kabina sharoitida ishlash:** Tarjimonlar maxsus shovqinsiz kabinalarda ishlaydilar. Bu kabinalar tarjimonning diqqatini jamlashiga yordam beradi va tashqi shovqinlardan xoli bo'ladi. Kabinada bo'lish ovozning aniq yetkazilishi va tarjimaning sifati uchun zarurdir.

5. Tanaffuslar va Stressni Boshqarish

• **Tanaffus qoidalariga amal qilish:** Sinxron tarjima juda kuchli aqliy zo'riqishni talab qilganligi sababli, tarjimonlar muntazam tanaffuslarda ishlaydi. Har bir 20-30 daqiqadan so'ng, tarjimon qisqa dam olishi yoki boshqa tarjimon bilan almashishi lozim.

• **Stressni boshqarish:** Sinxron tarjima yuqori darajada stressli jarayon bo'lishi mumkin. Tarjimon asabiylashmaslikka va stressni boshqarishga o'rganishi, tarjima davomida xotirjam bo'lishi kerak.

6. Madaniy Kontekstni Hisobga Olish

• **Madaniy jihatlarni hisobga olish:** Sinxron tarjima jarayonida turli madaniyatlarni hisobga olish zarur. Asliyatdagi nutq madaniy kontekstlarga boy bo'lishi mumkin, va tarjimon ushbu kontekstlarni to'g'ri ifoda etishi lozim. Bunday hollarda tarjimon o'z tajribasiga tayanib, madaniy jihatdan mos keladigan ifodalarni tanlaydi.

• **O'rinsiz iboralarni chetlab o'tish:** Ba'zi hollarda asliyatdagi ayrim iboralar yoki so'zlar boshqa tillarda noo'rin bo'lishi mumkin. Tarjimon bunday iboralarni his qilishi va mos so'zlarni tanlashi muhimdir.

7. Nutq Tezligi va Intonatsiyaga Moslashish

• **Nutq tezligiga moslashish:** Nutqning tezligi yuqori bo'lsa, tarjimon nutqning asosiy qismlarini saqlab, ortiqcha ma'lumotlarni qisqartirishi mumkin. Nutq sekinroq bo'lsa, tarjimon mantiqiy pauzalar qo'yib, tabiiy va ravon tarjima qiladi.

• **Intonatsiyani saqlash:** Nutqdagi intonatsiya ham muhim hisoblanadi. Tarjimon intonatsiyaga mos kelishi orqali soʻzlovchining hissiyotlarini aniq yetkazishga harakat qiladi. Bu ayniqsa muhim maʼruzalar va hissiy nutqlarda ahamiyatlidir.

8. Etik Qoidalar

• **Neytrallikni saqlash:** Sinxron tarjima jarayonida tarjimon shaxsiy fikrlar va hissiyotlarni chetga surib, betaraf boʻlishi kerak. Tarjimon soʻzlovchining mazmunini oʻzlashtirmasdan va oʻz fikrlarini aralashtirmasdan yetkazishga intiladi.

• **Konfidentsiallik:** Sinxron tarjimon professional etikaga rioya qilib, tarjima davomida aytilgan maʼlumotlarni sir saqlashga va boshqa maqsadlarda foydalanmaslikka rioya qilishi kerak. Koʻplab xalqaro tadbirlarda maxfiy maʼlumotlar muhokama qilinadi va tarjimon ularga rioya qilishi shart.

9. Ovozli Sifatga Eʼtibor

• **Ravon va aniq ovoz bilan gapirish:** Tinglovchilar tarjima qilayotgan tarjimonning nutqini ravon va aniq eshitishlari kerak. Tarjimon aniq va ravon tarzda gapirishi, ortiqcha toʻxtab qolishlar yoki chalkashliklardan qochishi lozim.

• **Ovoz balandligi va ohangiga eʼtibor berish:** Tarjimonning ovozi baland va eshitiladigan darajada boʻlishi kerak, lekin juda baland emas. Buning uchun maxsus ovoz tekshirish jarayoni oʻtkaziladi.

Sinxron tarjimonlik juda murakkab va qiyin kasb sanaladi. Tarjimon bir vaqtning oʻzida nutqni tinglab, uni tarjima qilishi va shuni toʻgʻri shaklda yetkazishi kerak. Buning uchun tarjimondan yuqori darajadagi til bilimi, psixologik tayyorgarlik va konsentratsiya talab etiladi. Shuningdek, sinxron tarjima texnik jihozlarga bogʻliq, yaʼni yaxshi sifatli quloqchin va mikrofonlar hamda kabinalar zarur. Agar texnik muammolar yuzaga kelsa, bu butun tarjima jarayonini qiyinlashtirishi mumkin. Bundan tashqari, sinxron tarjimonlar tez charchaydi, chunki ular qisqa vaqt ichida katta miqdorda maʼlumotni boshqacha shaklda yetkazishlari kerak. Bunday mashaqqatli mehnat ulardan nafaqat yuqori darajadagi mahorat va tajribani, balki psixologik chidamlilikni ham talab qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, hozirgi kunda texnologiyalar rivojlanishi bilan avtomatlashtirilgan tarjima tizimlari va sunʼiy intellekt yordamida tarjima texnologiyalari ham takomillashmoqda. Sinxron tarjimada sunʼiy intellektdan foydalanish imkoniyatlari oʻrganilmoqda va bu kelajakda tarjima jarayonini yanada tezlashtirishi va samarali qilishi mumkin. Shunga qaramay, hozircha sunʼiy intellekt inson tarjimonlarining nozik jihatlarni, madaniy kontekstlarni va hissiyotlarni toʻgʻri anglash qobiliyatiga yetishmagan. Shu sababli, kelajakda ham sinxron tarjimonlarning oʻrni ahamiyatli boʻlib qoladi.

Sinxron tarjima globallashuv va xalqaro hamkorlik jarayonida juda katta ahamiyatga ega. U xalqlar va davlatlar o'rtasida o'zaro tushunishni ta'minlab, xalqaro munosabatlarni mustahkamlaydi. Sinxron tarjima jarayoni orqali insonlar bir-birining tilini tushunishdan tashqari, o'zaro madaniyat va qadriyatlarni anglab, bir-biriga nisbatan hurmat va do'stlik rishtalarini rivojlantiradi. Sinxron tarjima texnologiyalari rivojlanib borar ekan, uning jamiyat hayotidagi o'rni va ahamiyati yanada oshib borishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Hamidov X, Ismatullayeva N, Ergasheva S. Sinxron Tarjima. – Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2020.
2. E.Ochilov. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o'quv qo'llanmasi). Toshkent. 2012.
3. Колосов С.А, Бабаева Ю.А. Стратегии, тактики и приёмы в синхронном переводе. – г. Тверь – 2020.
4. Чернов Г.Ч.. Теория и практика синхронного перевода: Международные отношения, М., 1978.
5. Simon, Thomas. "Exploring difficulties in simultaneous interpreting Insights from the English-French Louvain Corpus of Simultaneous Interpretations" Année académique 2018-2019.
6. Романова С.П., Коралова А.А. Пособие по переводу с английского на русский, Москва, издательство книжный дом «Университет», 2004–171 с.
7. Hamidov X., Ismatullayeva N., Ergasheva S. Sinxron tarjima. –T.: TDSHU, 2020. –B. 17.
8. Ochilov E., Xodjaeva N. Tarjima nazariyasi (o'quv qo'llanma). –T., 2020. —182 b.